

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 124 (1723), 2026-yil 20-iyun, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



MINTAQANING ENG YIRIK INVESTITSION TADBIRI

minglab xorijlik ishbilarmonlarni Toshkent shahrida jamladi

Joriy hafta mamlakatimiz iqtisodiy hayotida muhim pallaga aylandi. Poytaxtimiz Toshkent xalqaro investitsiya forumining beshinchi — yubiley tadbirlariga mezbonlik qilmoqda. Yirik xalqaro anjuman bu yil ham minglab xorijiy mehmonlar, davlat va hukumat rahbarlari, dunyoning 100 dan ortiq mamlakatidan kelgan 4 mingga yaqin delegat, jahonning mashhur kompaniya va brendlari, yirik biznes egalari hamda investorlarni bir maydonga jamladi. Toshkent shahrida 16-18-iyun kunlari bo‘lib o‘tgan forumning rasmiy tadbirlari o‘z ishini muvaffaqiyatli yakunladi.

Bugun mazkur nufuzli anjuman nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining investitsiyaviy jozibadorligini namoyon qilayotgan yirik iqtisodiy tadbir sifatida e’tirof etilmoqda. O‘tgan besh yil davomida xalqaro forumning ko‘lami, nufuzi, ishtirokchilari soni va unda imzolanyotgan loyihalar



qiymati oshib borayotgani buning yaqqol isboti. Ishtirokchi kompaniyalar qatoridagi BlackRock, JPMorgan Chase, Citibank, Visa, Franklin Templeton, Airbus, Coca-Cola kabi mashhur brendlarnomlarining o‘ziyoq forumning jahon maydonidagi ahamiyatini namoyon etmoqda.

Har yili ushbu anjumanga yuqori darajada tayyorgarlik ko‘rilayotgani boisi shunda. Axir minglab xorijlik investorlar shunchaki kelmaydi, ular yangi hamkorlar topish, istiqbolli loyihalarga sarmoya kiritish, iqtisodiy manfaatdorlik istagida. Asosiysi, bunga ularning ishonchi baland, imkoniyatlarni aniq ko‘ra olyapti.

O‘zbekistonning o‘sib borayotgan iqtisodiyoti, faol rivojlanayotgan sohalar, yirik islohotlar hamda investorlar uchun yaratilgan imkoniyat va qulayliklar ularni mamlakatimiz tomon faol chorlamogda.

► Davomi 3-betda



Nuqtayi nazar

QAT’YI IRODA VA ISLOHOTLAR SAMARASI

Dunyo hamjamiyati diqqat e’tibori shu kunlarda yana bir bor O‘zbekistonga qaratildi. Toshkent rivojlangan davlat va hukumat rahbarlari, yirik xalqaro kompaniyalar vakillari, ishbilarmonlarni bir davra atrofida jamlagan jahonning o‘ziga xos investitsiya poytaxtiga aylandi. Toshkent xalqaro investitsiya forumi ko‘lami va salohiyati, barqaror ishonchga asoslangani va insoniyatning kelajak taraqqiyoti uchun tutgan ahamiyati bilan tarixga muhrlanmoqda.

Jahon iqtisodiy konyunkturasi muttasil o‘zgarib borayotgan, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sirini prognoz qilish juda qiyin bo‘lgan bugungi davrda dunyoning ko‘zga ko‘ringan yirik investorlarini bir davrada yig‘ish, jozibador takliflar bilan ularni jalb etish oson ish emas. Buni birgina forum yoki xalqaro anjuman tashkil etish bilangina uddalab bo‘lmaydi. Bu uzoq yillik strategiyani ko‘zlagan mashaqqatli mehnat, kuchli siyosiy iroda, aniq natijalarga asoslangan ko‘p vektorli islohotlar va kelajakni ko‘ra olish singari qat’iy omillarga asoslanadi.

Shu ma’noda, Toshkent xalqaro investitsiya forumining ahamiyati nafaqat O‘zbekiston yoki mintaq, balki butun dunyo miqyosidagi yirik o‘zgarishlarda naqadar katta o‘rin tutishini anglash uchun o‘n yil oldingi holat bilan bugunni taqqoslash, qanday maqsadlar qo‘yilganiyu, bugun ular qanchalik natija berayotganiga e’tibor qaratishimiz zarur.

“Bino”ning mustahkam poydevori

Ustachilikdan xabari bor har qanday inson yaxshi biladi: mo‘rt yoki hamingqadar poydevor ustiga yangi qurilish qilib bo‘lmaydi. Har qancha bezatilmasin, poydevori mustahkam bo‘lmagan uyda yashash xavfli bo‘lib qolaveradi.

O‘zbekistonda bundan o‘n yil ilgari boshlangan islohotlar, hatto tasavvurimizda ham go‘yo yetib bo‘lmaydigan marralar, mamlakat hayotidagi barcha sohalarida boshlangan tub yangilanishlar qanday maqsadlarni ko‘zlagani, nima natijalar berishini, ochig‘i, ko‘pchilgimiz mana endi-endi anglab yetaypmiz.

Iqlim o‘zgarishining salbiy ta’siri, jahon bozoridagi beqarorlik, siyosiy ambitsiyalar, turli urushlarning oxiri ko‘rinmayapti. Shunday bir sharoitda dunyoga bag‘rini ochgan holda, o‘zaro do‘stlik va hamjihatlikka asoslangan taraqqiyot yo‘lini taqdim etish orqali O‘zbekiston ishonchli poydevorni yaratadi.

► Davomi 2-betda



BARQAROR IQTISODIYOT SOG‘LOM EKOTIZIMGA TAYANADI

Dunyo bugun texnologiyalar tezligi va tabiat o‘rtasidagi qarama-qarshilikni avvalgidan ko‘ra aniqroq his etmoqda. Bir tomonda, insoniyat tarixida ilk bor sur‘iy intellekt qaror qabul qiladigan, sanoat tizimlari to‘liq raqamli boshqaruvga o‘tayotgan, kosmik texnologiyalar galaktika chegarasigacha yetgan davr shakllandi. Inson mehnatining unumdorligi, ma’lumot aylanish tezligi va iqtisodiy jarayonlarni modellash imkoniyatlari hech qachon bu darajaga yetmagan. Taraqqiyot tashqi ko‘rinishda mukammal tizim singari namoyon bo‘lmoqda.

Biroq aynan shu tizim ichida sezilmayotgan, ammo ta’siri kuchayib borayotgan ichki chekllovlar paydo bo‘lmoqda. Suv resurslari kamaymoqda, yer unumdorligi pasaymoqda, muzliklar tezroq erimoqda. Ilgari ilmiy hisobotlar va uzoq muddatli taxminlar doirasida muhokama qilingan bu jarayonlar bugun iqtisodiy qarorlar uchun bevosita cheklarga aylandi. Ayrim hududlarda suv tanqisligi ishlab chiqarish quvvatini belgilab bermoqda, boshqalarida esa qishloq xo‘jaligi modelini to‘liq qayta ko‘rib chiqishga majbur qilmoqda.

Eng og‘ir muammo shuki, bu jarayonlar bir-biridan alohida emas. Iqlim o‘zgarishi, energiya xavfsizligi, oziq-ovqat bozorlari va geosiyosiy raqobat bir nuqtada tutashmoqda. Shu bois, global kun tartibida asosiy masala faqat iqtisodiy o‘sish sur‘ati bo‘lib qolmay, resurslar cheklangan sharoitda barqarorlikni saqlab qolish imkoniyatiga aylandi.

Ayrim tahlillar bu bosqichni rivojlanishning sinov davri sifatida baholamoqda.



Mulohaza

Markaziy Osiyo ushbu global ziddiyatning kesishgan nuqtalaridan. Mintaqa tarixan suv oqimlari, muzliklar va yer resurslariga tayangan sivilizatsiyalar makoni bo‘lgan. Daryolar atrofida shakllangan shaharlar va qishloq xo‘jaligi tizimi asrlar davomida barqarorlik manbai bo‘lib kelgan. Ammo bugun aynan shu tabiiy asoslar o‘zgarish bosimi ostida qolmoqda. Muzliklarning qisqarishi, cho‘llanishning kengayishi, yer unumdorligi pasayishi va suv taqchilligining kuchayishi alohida ekologik holat bo‘lib qolmay, iqtisodiy tizimni qayta shakllantirayotgan omildir.

Bu jarayonning ijtimoiy oqibatlari ham sezilmogda. Qishloq xo‘jaligidagi barqarorlik pasayishi, ish o‘rinlari va daromad manbalariga bosim, shaharlarga migratsiya oqimining kuchayishi kabi tendensiyalar mintaqaviy muvozanatni o‘zgartirmogda. Ekologik muammo endi tabiat bilan cheklanmagan, u to‘g‘ridan to‘g‘ri ijtimoiy strukturaga ta’sir ko‘rsatuvchi omilga aylangan.

► Davomi 4-betda



Munosabat

TARAQQIYOTGA ISHONCH BELGISI

Investitsiya to‘g‘ri va aniq maqsadga yo‘naltirilsa, katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Qurilish maydonlari jonlanadi, ishlab chiqarish kengayadi, minglab odamlar ish topadi. Eksport yo‘laklari ochiladi... Shu tariqa iqtisodiyot barqarorligi ta’minlanadi.

Bu jarayon bugun O‘zbekistonda kechayotgan islohotlarning asosiy va ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Jumladan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Toshkentda birinchi marta tashkil etilgan forumda investorlar o‘zlarining qator g‘oyalari bilan ishtirok etgandi. Vaqt o‘tib, o‘sha g‘oya kelishuvga, kelishuv loyihalarga aylandi. Shu ma’noda, an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi mamlakatimiz iqtisodiyotiga munosib hissa qo‘shmoqda. Mazkur yirik anjuman nafaqat raqamlar va shartnomalar maydoni, balki ishonchning yildan yilga mustahkamlanib

borayotgan dalilidir. Ishonchga esa bir kunda erishib bo‘lmaydi. U yillar davomida asta-sekin shakllanadi.

2016-yilgacha mamlakatimiz iqtisodiyoti yopiq edi. Valyuta konvertatsiyasi cheklangan, xususiy tadbirkorlikka ma’muriy bosim kuchli, davlat monopoliyalari iqtisodiyotning asosiy tomirlarini ushlab turardi. Bunday sharoitda xorijiy investor uchun O‘zbekiston xaritada mavjud, lekin amalda yetib bo‘lmas bir joy edi. Ishonch muhitini yaratish, avvalo, ana shu og‘ir davrni tan olishdan va u bilan ochiqchasiga hisoblashishdan boshlandi.

► Davomi 2-betda

RAQAMLI SAVODXONLIK

zamonaviy shaxsning asosiy ko‘nikmasi

Bir necha yil avval ko‘pchilik uchun davlat xizmatidan foydalanish, bank amaliyotlarini bajarish yoki zarur ma’lumotni topish uchun o‘sha muassasalarga borish odatiy hol edi. Bugun esa bunga zarurat yo‘q. Ularning aksariyati qo‘limizdagi smartfonda mujassam. Hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan raqamli texnologiyalar kundalik turmush tarzimizni tubdan o‘zgartirib yubordi.

► Davomi 5-betda

Taklif



4

2026-yil 20-iyun, 124-son

Nuqtayi nazar

QATʼTY IRODA VA

ISLOHOTLAR SAMARASI



Abdushukur HAMZAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
fraksiyasi rahbari

Boshlanishi 1-betda

Avvalo, iqlim oʻzgarishiga moslashish, demokratiya, inson huquqlari, gender tenglik, tinchlik va xavfsizlik, barqaror rivojlanish kabi sohalarida ilgari hatto tajribamizda kuzatilmagan yangiliklar hayotga tatbiq etila boshlandi.

Oʻzbekiston mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi muammoli vaziyatlarga konstruktiv yechimlar taklif etdi. Birinchi navbatda, qoʻshni mamlakatlar bilan samimiy doʻstlik rishtalarini bogʻlab, teng manfaatli aloqalarni yoʻlga qoʻydi. Chorak asr davomida qoʻshni davlatlar bilan chegara hududlari boʻyicha muammo boʻlgan masalalar konstruktiv muloqotlar orqali yechim topdi. Bugun Oʻzbekistonning qoʻshni davlatlar bilan chegara boʻyicha birorta ham muammosi qolmadi. Bunga shak-shubhasiz Prezidentimizning qatʼiy siyosiy irodasi tufayligina erishildi.

Ekologik barqarorlikka erishish, kelajak taraqqiyotining asosi boʻlmish “yashil iqtisodiyot”ga oʻtish yoʻlidagi ishlarni olaylik. Oʻsha paytdayoq davlatimiz rahbari Oʻzbekiston iqtisodiyotining kelajagi “yashil” energiya, suvdan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish ekanini BMT minbaridan turib baralla aytgan edi. 2021-yilgacha mamlakatimizda “yashil” energetika ulushi nolga teng boʻlgan boʻlsa, ikki yil oʻtib 16 foizga yetkazildi.

Soʻnggi yillarda yurtimizda 3,5 gegavatt quvvatga ega 16 ta quyosh va shamol elektr stansiyasi, 160 megavatt quvvatga ega 5



ta gidroelektr stansiyasi hamda 1,8 gegavatt quvvatga ega energiya saqlash quvvatlari ishga tushirildi. Birgina 2025-yilning oʻzida 12 ta quyosh va 4 ta shamol elektr stansiyasi, 12 ta energiya saqlash tizimi foydalanishga topshirildi. Sohaga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 5 milliard dollardan oshdi.

Bundan tashqari, oʻtgan yili umumiy qiymati 7 milliard 200 million dollarlik 11 ta loyihaning qurilish ishlari boshlandi.

Davlatimiz rahbari 2030-yilgacha mamlakatimiz energetika balansida qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 50 foizdan oshirish zarurligini jahon minbarlarida ham bot-bot takrorlamoqda. Buning muhim sababi bor. Chunki 2030-yilga borib, yurtimiz aholisi 41 milliondan, iqtisodiyot hajmi 200 milliard dollardan oshishi prognoz qilinmoqda. Bu maqsadlarning asosiy qismiga esa xalqaro miqyosdagi yirik investitsiyalarni Oʻzbekistonga jalb etish orqali yetishiladi.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston uglerod neytralligiga erishish boʻyicha naqadar katta islohotlarni boshlaganini jahon jamoatchiligi koʻrib, anglab turibdi. Mamlakatimizda 2030-yilgacha havoga issiqxona gazii chiqarishni uchdan bir qismga kamaytirish rejalashtirilgan. Bu majburiyatlar 2050-yilga qadar yanada kengaytiriladi. “Yashil” energetika ulushi 40 foizga yetadi. Mazkur chora-tadbirlar, albatta, global iqlim oʻzgarishi oqibatlarini yumshatish yoʻlida Oʻzbekiston tashlayotgan dadil qadamdir.

Bularning barchasi xalqaro darajadagi investitsiya forumini Toshkentda oʻtkazish, yirik investorlar uchun jozibador takliflarni taqdim etish uchun ishonchli poydevor boʻldi.



Birinchi qadam

Raqamlar ham islohotlar natijalaridan soʻzlaydi. Oʻtgan yili Oʻzbekiston iqtisodiyoti 7,7 foiz oʻsdi, joriy yilda esa yalpi ichki mahsulot hajmi 180 milliard dollardan ortishi kutilmoqda. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiyotiga kirib kelayotgan har bir soʻm investitsiya barqaror va ishonchli daromad manbaini yaratayotgani, Oʻzbekistonda jozibador investitsiyaviy muhit shakllanganini yaqqol koʻrsatadi. Soʻnggi yillarda yurtimizga 150 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiya jalb qilingan boʻlsa, shundan 123 milliard dollari oxirgi besh yilga toʻgʻri kelmoqda.

Xalqaro forumda dunyoning 100 dan ortiq davlatidan 4 mingga yaqin mehmon qatnashgani, ular orasida davlat va hukumat rahbarlari, nufuzli xalqaro moliya institutlari, yirik kompaniyalar, jamgʻarmalar va yetakchi ishbilarmonlar borligi ham

oʻtgan yili iqtisodiyotga 43 milliard dollar investitsiya jalb qilindi. Milliy valyutamizning barqarorligi taʼminlanib, xalqaro xazinalarimiz hajmi 70 milliard dollardan ortdi.

Dunyoning bugungi oʻzgaruvchan iqtisodiyoti talabi shunday: faqatgina bugun yuqori daromadni koʻzlash bilan ish bitmaydi. Zamonaviy investorlar uchun eng muhimi: kelajak texnologiyalari bilan birga qadam tashlash, biznes va iqtisodiyot uchun barqaror muhitni topish, sogʻlom va xavfsiz dunyo sari odimlash. Oʻzbekiston esa qisqa vaqt ichida ayni shu yoʻldan dadil borayotgan dunyodagi sanoqli davlatlardan biriga aylana oldi. Prezidentimiz xalqaro minbarlarda, xususan, BMT Bosh Assambleyasida

muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. Oʻzbekistonning oʻzi bu borada namuna koʻrsatishini taʼkidlammoqda.

Misol uchun, Orol fojiasi ortidan Qoraqalpogʻistonning koʻplab hududlari, ayniqsa, Moʻynoq tumani qanchalik ogʻir ijtimoiy-iqtisodiy ahvolda tushib qolganini olaylik. Bu hodisa yaqin tarixda hammamizning koʻz oʻngimizda roʻy berdi. Aholisi koʻchib ketishdan boshqa iloji qolmagan hudud juda qisqa muddatda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan butunlay tiklandi. Buning kaliti — Moʻynoqda jozibador investitsiyaviy muhit yaratildi. Tadbirkorlik, xizmat koʻrsatish, turizm faol ragʻbatlantirildi. Natijada Moʻynoqda hayot butunlay yangi oʻzanda tiklandi, aholi hayot darajasi va sifati keskin oshdi.

Mana shunday koʻp qirrali islohotlar natijasida Oʻzbekistonning xalqaro kredit reytingi yil sayin yaxshilanib bormoqda. Joriy yilda mamlakatimiz dunyoning nufuzli “Iqtisodiy erkinlik indeksi”da 14 pogʻona yuqorilab, ilk bor “Iqtisodiyoti moʻtadil erkin” davlatlar qatoridan joy oldi. Bularning barchasi yangi Oʻzbekiston iqtisodiyoti jadal surʼat va yangi imkoniyatlar bosqichiga chiqqaniga yorqin misoldir.

Marra hali oldinda

Yuqorida qayd etilgan natijalar — boshlangan izchil islohotlar uchun qatʼiy va mustahkam poydevor, xolos. Asosiy marra, koʻzlangan natijalar hali oldinda. Zotan, investitsiyaviy jozibadorlikning muhim jihatlaridan biri ham shu: izchillik, toʻxtab qolmaslik va kelajakka qatʼiy ishonch.

Prezidentimiz shundan kelib chiqib, Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqida koʻp qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish uchun bir qator ustuvor yoʻnalishlarga alohida toʻxtaladi. Investorlar uchun huquqiy kafolat tizimini yanada kuchaytirish birinchi yoʻnalish sifatida belgilangani bejiz emas. Butun dunyoda investorlar huquqlari kuchli institutlar, eʼtirof etilgan xalqaro mexanizmlar orqali taʼminlanadi. Endilikda Oʻzbekistonda ham shunday boʻladi.

Qayd etilganidek, Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish ishlari boshlandi. Yaqinda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida



Munosabat

TARAQQIYOTGA ISHONCH BELGISI



Bahodirjon
SHERMUHAMMADOV,
Fargʻona davlat universiteti
rektori

Boshlanishi 1-betda

Eng birinchi va eng chuqur toʻsiq institutsional ishonchsizlik edi. Investor uchun qonunning qogʻozda yozilishi yetarli emas. U amalda qanday ishlashini koʻrishi kerak. Tajribali samayodvor soʻz bilan emas, natija bilan hisoblashadi.

Forum xronikasi

2022-yilda ilk marotaba tashkil etilgan forum, taʼbir joiz boʻlsa, ochiq eʼlon bosqichi boʻldi. Yaʼni u “Oʻzbekiston hamkorlikka tayyor”, degan ochiq bayonot edi. Forum doirasida imzolangan kelishuvlar qiymati 15 milliard dollardan oshdi. Energetika, kimyo sanoati, transport infratuzilmasi — uch yoʻnalishda bir vaqtda harakat boshlandi. Dastlabki muvaffaqiyatli loyihalar keyingi investorlar uchun yoʻl ochib berdi.

Bir yil keyin boʻlib oʻtgan navbatdagi forumda koʻproq “yashil” energetika va amaliyot uygʻunligi namoyon boʻldi. Mustahkam ishonch samarasi yaqqol koʻrına boshladi. “Yashil” energetika yoʻnalishida qator yirik shartnomalar imzolandi. Masalan, “Total Energies” va boshqa yirik xalqaro kompaniyalar bilan quyosh hamda shamol elektr stansiyalari qurish boʻyicha kelishuvlarga erishildi.

Uchinchi forum huquqiy himoya va kapital bozorini koʻrsatib berdi. Investorlar himoyasi mexanizmlari institutlashirildi, arbitraj tartiblari xalqaro standartlarga yaqinlashtirildi. Xalqaro bozorlarda milliy valyutadagi korporativ yevroobligatsiyalar aylanmaga kiritildi.

2025-yilda esa 13 ta strategik korxona aktiviga ega Milliy investitsiya jamgʻarmasining 30 foiz aksiyalari Toshkent va London fond birjasiga chiqarildi. Bu London birjasining soʻnggi besh yildagi eng yirik IPOsiga aylandi. Shu yili mamlakatimizga jalb qilingan yillik investitsiya hajmi 43 milliard dollarga yetdi.

Joriy yilda yangi maralar belgilandi. Besh yillik yoʻlning yakuni va yangi bosqich boshlanishi boʻldi.

Madaniy oʻzgarish va siyosiy iroda

Koʻp yillar davomida shakllangan “yoʻq deyish oson, ha deyish xavfli” degan byurokratik mentalitetini bir kunda oʻzgartirish qiyin. Shu maʼnoda, maʼmuriy islohotlar, raqamli davlat xizmatlari ichki ishonch madaniyatini qayta qurish yoʻlidagi zaruriy qadamlardir.

Ishonch muhitini yaratishda shaxsiy siyosiy iroda alohida oʻrin tutadi. Prezidentimizning investorlar bilan bevosita, ochiq muloqoti, Xorijiy investorlar kengashining doimiy faoliyati va yirik xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik tizimli islohotlar samarasi boʻldi. Xalqaro reytinglardagi oʻsish, “Iqtisodiy erkinlik indeksi”da 14 pogʻona yuqorilash buni tashqi tomondan tasdiqladi.

Mamlakatimiz yetakchisining beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi yurtimizning global sarmoya xaritasida mustahkam oʻrin egallashga qaratilgan strategik eʼlon boʻldi.

Raqamlar
ortidagi manzara

Prezidentimiz keltirgan raqamlar oʻziga xos salmoqqa ega. Toʻrt yil avval, yaʼni birinchi forumda 2026-yil oxiriga kelib, YAIMni 100 milliard dollarga yetkazish maqsad qilib belgilangan edi. Bugun esa kutilayotgan koʻrsatkich 180 milliard dollardan oshmoqda. Bu shunchaki oʻsish emas, rejalashtirish va ijro oʻrtasidagi tafovutning ijobiy tomonga keskin oʻzgarishi samarasidir. 7,7 foizli yillik oʻsish surʼati va 70 milliard dollardan ortiq xalqaro xaziralar ham yurtimiz makroiqtisodiy barqarorlikka erishayotganini koʻrsatadi.

Nutqdagi eng eʼtiborli yangiliklardan biri Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish tashabbusi boʻldi. U maxsus huquqiy rejimga ega boʻlgan yangi institutsional platforma sifatida faoliyat yuritadi.

Markaz ishtirokchilari uchun soliq va bojxona imtiyozlari, kapitalning erkin harakati kafolatlari hamda istalgan valyutada hisob-kitob qilish imkoniyati beriladi. Markaz infratuzilmasini shakllantirish doirasida mustaqil moliyaviy regulatory tashkil etiladi, raqamli aktivlar, “yashil” moliya uchun zamonaviy tizim yaratiladi.

Bu model Dubay (DIFC) va Nursulton (AIFC) tajribalariga oʻxshash. Ushbu modellar samardorligi esa, asosan, uch omilga bogʻliq. Regulatoryning chinakam mustaqilligi, xalqaro sudyalar va ekspertlarning real vakolat doirasi hamda mamlakatdagi umumiy huquqiy muhit bilan “parallel tizim” oʻrtasidagi uygʻunlik. Agar bu omillar oʻz vaqtida va samarali yechilsa, markaz mintaqada haqiqiy moliyaviy xabga aylanadi.

Olti ustuvor yoʻnalish

Prezidentimiz eʼlon qilgan olti yoʻnalishda eʼtiborga loyiq strategik izchillik bor. Yuqori qoʻshilgan qiymat zanjirlariga eʼtibor — xomashyoni qayta ishlashdan tortib, tayyor mahsulotgacha boʻlgan butun zanjirni yurtda shakllantirish niyati toʻgʻri yoʻnalish. 130 turdagi yangi mahsulot va 2,5 baravar yuqori texnologiyali ishlab chiqarish raqobatbardosh sanoatni qurish yoʻlidagi asosiy qadam.

“Yashil” energetika va sunʼiy intellekt kombinatsiyasi global tendensiyalar bilan uygʻun. Qoraqalpogʻistondagi maxsus zonada 2040-yilgacha soliqlardan ozodlik va boshqa yengilliklar jozibador shart-sharoit.

Transport-logistika integratsiyasi Transafgʻon koridorini, oʻrta koridor va “Xitoy — Qirgʻiziston — Oʻzbekiston” temir yoʻli bir-birini toʻldiruvchi loyihalar sifatida taqdim etilishi mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning strategik qiymatini oshiradi.

Kichik va oʻrta biznes
ekotizimi

Mahalliy tadbirkorlik muhiti qanchalik raqobatbardosh va iqtisodiyot “ildizi” — kichik va oʻrta biznes sektori qanchalik sogʻlom boʻlsa, yirik investitsiyalar ham shunchalik samarali “ildiz otadi”.

Prezidentimizning beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi iqtisodiy modernizatsiyaning aniq manzarasini, oʻylangan institutsional arxitekturasini va amaliy takliflarini bir butun holda taqdim etgan strategik hujjatdir. Dunyo iqtisodiyotidagi geosiyosiy beqarorlik va savdo nizolari kuchayib borayotgan bir davrda Oʻzbekistonning “ochiq eshik” siyosatini saqlashi oʻz-oʻzicha muhim ustunlik. 100 dan ortiq davlatdan 4 mingga yaqin mehmon ishtirok etishi uning xalqaro miqyosdagi eʼtirofning dalolat beradi.

“

Bugun O‘zbekiston investorlarga shu sharoitlarning barini yaratyapti, har qanday yirik loyihalarni amalga oshirish taklifini beryapti, ochiq, shaffof, ishonchli hamkorlikka chorlayapti.



MINTAQANING ENG YIRIK INVESTITSION TADBIRI

minglab xorijlik ishbilarmonlarni Toshkent shahrida jamladi

Boshlanishi 1-betda

V Toshkent xalqaro investitsiya forumining bu yilgi tadbirlarida ham bunga yaqqol guvoh bo‘ldik. Forum ishtirokchilari soni to‘qqiz mingga yaqinlashdi, 60 dan ortiq hukumat delegatsiyasi, xorijiy korporatsiyalarning to‘rt mingga yaqin rahbari anjuman qatnashchisiga aylandi. Ishirokchi kompaniyalarning umumiy aktivlari esa 42 trillion dollar deb baholandi. Bu dunyo moliyasining yirik qismi Toshkent shahrida jam bo‘lganini ko‘rsatadi. Yirik kapital, siyosat va moliya institutlarining bir joyga to‘planishi jahon e’tiborini o‘ziga qaratdi. Forum ishini dunyoning 41 mamlakatidan kelgan 200 dan ziyod xorijiy jurnalist faol yoritib bordi. Bloomberg, Reuters, Euronews, BBC News, Xinxua kabi yirik nashrlarda V Toshkent xalqaro investitsiya forumi haqida qator maqolalar e’lon qilindi.

Ochig‘i, uch kun davom etgan forum haqiqiy iqtisodiy bayramga aylandi. Rasmiy va norasmiy shaklda o‘tgan 80 ga yaqin tadbir turli mamlakatlar investorlari, iqtisodiyot vakillari, qator sohalarda faoliyat yuritayotgan biznes egalari bir manzilda uchrastirdi, faol muloqoti uchun qulay platforma yaratdi. Ishirokchilar o‘zaro muloqotlardan tashqari panel sessiyalar, davra suhbatlari, biznes forumlarda qatnashdi. Ularda yuzlab xalqaro toifadagi mutaxassislar, hukumat va yirik moliya tashkilotlari rahbarlari, investorlar nutq so‘zlab, bugungi kunning eng dolzarb mavzularida ma’ruzalar qildi. “Yashil” energetika, oziq-ovqat xavfsizligi, islom moliyasi, raqamli boshqaruv va sun‘iy intellekt kabi aniq yo‘nalishlar muhokama



qilinib, soha mutaxassislari bu boradagi eng ilg‘or yangiliklar, zamonaviy tendensiyalar haqida gapirdi.

Forum doirasida mamlakatimiz hududlarining iqtisodiy imkoniyatlari, drayver tarmoqlari, sanoat quvvatlari, milliy mahsulotlar, yangi loyihalar namoyish etildi. Ayniqsa, ana

shu jihatlar investorlarda katta taassurot qoldirib, hamkorlik yo‘nalishlarini kengroq aniqlab olishga imkoniyat yaratganini ta’kidlashmoqda. Biz xorijlik mehmonlarning V Toshkent xalqaro investitsiya forumidan olgan taassurotlari, fikr va takliflari, yangi loyihalar bo‘yicha rejalari bilan qiziqdik.

SARMOYADORLARNI CHORLAGAN SABAB — KATTA ISHONCH

Janne HARPUNJA,
finlyandiya
investor, yirik
sanoat
kompaniyalari vakili:



— Bu O‘zbekistonga ilk tashrifim emas, mamlakat haqida yetarlicha tasavvurga egaman. Ochig‘ini aytсам, O‘zbekistonning energetika sanoati va “yashil” energetika borasidagi islohotlari meni chinakamiga hayratga solmoqda. Bir necha yil oldin bu borada deyarli tajribasi bo‘lmagan mamlakat bugun “yashil” taraqqiyot inqilobini amalga oshirib, hatto ko‘plab davlatlarga namuna bo‘layotgani, quyosh va shamol imkoniyatidan unumli foydalanayotganini ko‘rib turibmiz. Yana bu oddiy usullar emas, balki jahonning eng yangi va ilg‘or texnologiyalari yordamida amalga oshirilyapti, hatto mazkur texnologiyalarni mahalliy lashtirish boshlangan.

Bu juda katta mablag‘ talab etadigan jarayonlar va sohaga jahonning eng yirik kompaniyalari sarmoya kiritmoqda. Shuning o‘ziyoq O‘zbekistonning investitsion jozibadorligi yuqori ekani, xorijlik sarmoyadorlar uchun juda katta imkoniyatlar yaratilganini ko‘rsatadi.

V Toshkent xalqaro investitsiya forumi, nazarimda, dunyo bo‘yicha shu yo‘nalishda o‘tkaziladigan tadbirlarning eng yiriklaridan biriga aylangan. Bu yil ham forumda qatnashish uchun minglab xorijlik ishbilarmonlar Toshkent shahriga

keldi. Ular kichik va o‘rta kompaniyalar egalari emas, balki jahonga mashhur, nomdor brendlar rahbarlari, global moliya bozori yetakchilardir. Ularni bu yerga yetaklagan asosiy sabab mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti, investitsion muhitiga katta ishonch deb bilaman.

Men Finlyandiyaning yillik aylanmasi 17-18 milliard yevroga teng bo‘lgan yirik sanoat kompaniyalari manfaatlarini ifoda etaman. Vakillarimiz energetika, mashinasozlik, elektrotexnika sohalarda faoliyat yuritadi.



“YASHIL” ENERGETIKA INQILOBI

Muhammad ABUNAYYAN,
Saudiya Arabistonining
kompaniyasi rahbari:

— O‘zbekiston “yashil” energetika taraqqiyotiga qadam qo‘ygan ilk vaqtlardan oq asosiy hamkorlaridan biriga aylanib, birgalikda yirik loyihalarni amalga oshirayotganimizdan mamnunmiz. Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyarlari bu lavozimni egallaganidan buyon mamlakat va uning iqtisodiyoti uchun o‘zgarishlar qilgani uchun men bu yurti doim yangi O‘zbekiston deb atayman va ushbu buyuk mamlakatni boshqarayotgan davlat rahbariga o‘z minnatdorligimni bildiraman.

Har yili Toshkent xalqaro investitsiya forumida to‘planib, mamlakat iqtisodiyoti, sohalari imkoniyatlari haqida gaplashganimizda, o‘zgarishlar qanchalik katta ekaniga amin bo‘lamiz. Bu yilgi forum ham nihoyatda yuqori saviyada tashkil etilib, ko‘plab xorijlik investorlar uchun ajoyib muloqot, yangi fikr va g‘oyalar



almashish maydoniga aylandi. Buyuk davlatning buyuk xalqi bugun o‘z rahbariyati boshchiligidagi haqiqiy o‘zgarishlar, ulkan islohotlarni boshdan kechirmoqda. Mamlakatning ehtangi istiqbolli, yaqin yillardagi iqtisodiy rivojlanishi bundan-da jadal kechishiga biz, xorijliklarning ham ishonchi

baland. Bunga birgina “yashil” energetika yo‘nalishida erishilayotgan misli ko‘rilmagan yutuqlar misolida guvoh bo‘lib turibmiz.

Bugun jahonda energetika transformatsiyasi jadallashayotgan bir vaqtda ko‘plab davlatlar energiya xavfsizligini mustahkamlash, ishlab chiqarish quvvatlarini diversifikatsiyalash, muqobil energiya manbalarini rivojlantirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash yo‘lidagi sa’y-harakatlarini kuchaytirmoqda. O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish yo‘lini tanladi va bunga faol kirishdi. Buni shunchaki amalga oshirmadi, balki sohaga xalqaro tajribalar, ilg‘or texnologiyalar va yirik investorlarni jalb qildi. Biz esa ushbu loyihalar kelajagiga, hamkorligimiz istiqboliga, taklif etilgan imkoniyat va sharoitlarga ishonch bildirib, sarmoya kiritishga qaror qildik. Bugun birgalikda erishayotgan natijalarimizdan esa faxrlanamiz.

Shu tariqa “ACWA” kompaniyasi O‘zbekistonning “yashil” energetika sohasidagi eng yirik investorlaridan biriga aylandi. Kompaniyamiz dunyoning 15 mamlakatidagi 110 ta loyihada 120 milliard dollardan ortiq qiymatdagi aktivlarni boshqarib kelmogda. Bu loyihalarining

umumiy ishlab chiqarish quvvati 95,7 gigavatt bo‘lib, uning yarmidan ko‘pi qayta tiklanuvchi energiya manbalariga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston bilan hamkorlik o‘tgan qisqa vaqtda “ACWA” kompaniyasining xalqaro o‘shish strategiyasida markaziy o‘rinni egalladi. Kompaniyaning mamlakatdagi 19 ta loyihaga kiritgan va rejadagi investitsiyalari hajmi 15 milliard dollarga yetdi. Bu qayta tiklanuvchi energiya yo‘nalishidagi eng yirik xususiy energetika portfelidir. Bugunga qadar O‘zbekistonning turli hududlarida o‘nlab quyosh va shamol elektr stansiyalari qurib ishga tushirilgan bo‘lsa, yana bir qancha loyihalarni faol davom ettiryapmiz.

“ACWA” kompaniyasi delegatsiyasi V Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida o‘tkazilgan tadbirlar va yuqori darajadagi uchrashuvlarda nafaqat ishtirokchi, balki asosiy homiyarlardan biri sifatida qatnashdi. Odatdagidek forum ishi yuqori darajada tashkil etilganiga guvoh bo‘ldik. Aminmanki, bu yilgi forum doirasida imzolangan yangi hamkorlik bitimlari, investitsion kelishuvlar mamlakat iqtisodiy rivojida yanada muhim o‘rin egallaydi.

O‘ZBEKISTON MARKAZIY OSIYONING AVIATSIYA XABIGA AYLANADI

Suresh SABUDI,
Amerikaning “Boston Consulting Group” kompaniyasi boshqaruvchi direktori:

— V Toshkent xalqaro investitsiya forumi kutganimizdan ko‘ra qizg‘in ruhda o‘tdi. Ayniqsa, panel sessiyalarda davrimizning eng dolzarb mavzularida fikr almashdik, yangi loyihalar haqida gaplashdik, sohalardagi muammolarni o‘rtaga tashlab, takliflarimizni bildirdik. Men ham sessiyalar davomida ma’ruza bilan ishtirok etib, aniq mavzudagi tahlillarimni bildirdim.

Masalan, O‘zbekistonning aviatsiya sohasini olaylik. Bu yo‘nalish mamlakatda tobora rivojlanib bormoqda. O‘zbekistonda aviatsiya o‘shishi iqtisodiy o‘shishdan qariyb 2,5 barobar yuqori. Xususan, 2019-2025-yillarda aviayo‘lovchilar soni 6,5 million nafardan 15,5 million nafarga yetgan bo‘lsa, havo yuk tashuvi hajmi bu davrda 12 foiz, mamlakatga parvoz qilayotgan aviakompaniyalar soni esa qariyb to‘rt baravar oshgan. Bu talabning ortib borayotgani bilan bog‘liq. Shu bois, xorijlik investorlarning ushbu sohaga qiziqishi nihoyatda baland. Hozir mamlakatda aviatashuvlarning katta qismi chet el kompaniyalari hissasiga to‘g‘ri kelyapti. Bu ko‘rsatkich tobora ortib boradi.

2025-yilda Markaziy Osiyo qariyb 60 million yo‘lovchi bilan dunyodagi eng tez rivojlanayotgan aviatsiya submintaqasiga aylandi. O‘zbekiston bunda yetakchilik qilmoqda. Yo‘lovchilar soni o‘shishi ham, aviakompaniyalar taklif etayotgan o‘rindiqlar hajmi ham rekord sur‘atlarda ortyapti. Demak, mamlakatning mintaqada aviatsiya xabiga aylanish imkoniyatlari ancha yuqori.

Ayniqsa, O‘zbekiston Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi qulay geografik joylashuvi sabab yirik tranzit koridoriga aylanish imkoniyatiga egaligi



bilan qiziqishni yanada oshirmoqda. Ayni paytda mamlakatda tranzit yo‘lovchilar ulushi atigi 3 foizni tashkil qiladi. Vaholanki, bu ko‘rsatkichni 20 foizgacha oshirish mumkin.

Turizm ham bu borada ulkan salohiyatga ega. Markaziy Osiyoda bir nechta davlatlarni qamrab oluvchi sayohat yo‘nalishining tarkibiy qismlari mavjud va mintaqada turizm salohiyati hozirgi hajmdan kamida uch baravar oshishi mumkin. Bu esa havo qatnovlarini yanada rivojlantirish, ko‘proq investitsiyalar jalb qilishni talab etadi.

O‘zbekiston aviatsiya sohasida imkoniyatlar katta, ammo e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak bo‘lgan asosiy masalalar ham mavjud. Tahlillarimga ko‘ra, mamlakat aviatsiya sohasida uchta muhim jihat — aeroport infratuzilmasini rivojlantirish, mintaqaviy xab uchun raqobatda muvaffaqiyat qozonish hamda aviakompaniyalar raqobatbardoshligini oshirishga e’tibor qaratishi kerak. Ayni shu omillar kelgusi yillardagi muvaffaqiyatni belgilab beradi.

PREZIDENTNING O‘ZI INVESTORLARNI ESHITIB, TAKLIFLARINI SO‘RAMOQDA

Jan DAM,
Niderlandiyadagi yirik
kompaniyalari vakili:



— O‘zbekiston bozori biz uchun yangi maydon emas, ammo uning jadal rivojlanib borayotgani bizni tobora hayratga solyapti. Biz mamlakatning sanoat tarmoqlariga investitsiya kiritishni, faol hamkorlikni allaqachon boshlaganmiz. Aniqliq, O‘zbekiston bozoriga ilk bor 2018-yilda kirib kelganmiz. O‘shandayoq mamlakatning sanoat salohiyati, iqtisodiy imkoniyatlari, sarmoyadorlar uchun yaratilgan qulay muhit qiziqishimizni oshirgan.

Asosiy e’tiborimizni boshqaruv panellari ishlab chiqarish va uni O‘zbekiston sharoitida mahalliy lashtirishga qaratamiz. 2020-yilda Toshkentda kompaniyamiz ofisi va muhandislik markazini ishga tushirishga muvaffaq bo‘ldik. Biz mamlakatdagi uzoq muddatli hamkorligimizni amalga oshirishda muhim qadam bo‘ldi. Bugungi kunda yuqori malakali mutaxassislar va tajribali muhandislardan iborat kattagina jamoamiz bilan birga faoliyat yuritaymiz. Ishonch bilan ayta olamanki, bu kompaniyamizning dunyo bo‘ylab shakllantirgan eng kuchli jamoalaridan biri. Ularning bilim va salohiyati yangidan yangi loyihalarni amalga oshirish, ko‘proq investitsiyalar kiritishga yo‘l ochyapti.

Bugun xorijlik investorlar O‘zbekistonga shunchaki bozor sifatida emas, balki uzoq muddatli hamkor, sarmoya kiritish uchun ishonchli va istiqbolli taraqqiyot sifatida qaralamoqda. Qisqsa vaqtda tez sur‘atda rivojlanib, barqaror iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlarini saqlab qolayotgan mamlakat buni amalda isbotlayapti. Qolaversa, O‘zbekiston Yevropa davlatlarini Markaziy Osiyo mintaqasi bilan bog‘lovchi asosiy markazga aylangan. Ayni jihatlar chet ellik ishbilarmonlar, investorlarni yanada faol jalb etyapti.

Yana bir muhim jihat bor. Investor hech bir joyga shunchaki sarmoya kiritmaydi. Avvalo,

o‘sha loyihaning istiqboli, uning rivojlanishi uchun mamlakatda qulay sharoitlar borligi hamda faoliyati erkinligiga ishonch hosil qilishi kerak. Davlat qanchalik rivojlangan bo‘lmasin, investor u yerdan erkin ishlay olmasa, huquqlari kafolatlanmasa, har qanday yirik loyihaga qo‘l urmaydi.

Bugun O‘zbekiston investorlarga shu sharoitlarning barini yaratyapti, har qanday yirik loyihalarni amalga oshirish taklifini beryapti, ochiq, shaffof, ishonchli hamkorlikka chorlayapti. Agar bu dunyo ishbilarmonlarini qanchalik qiziqtirayotganini bilmogchi bo‘lsangiz, mamlakatda o‘tkazilgan nufuzli anjuman — V Toshkent xalqaro investitsiya forumi ishtirokchilariga nazir tashlang. Ularning orasida jahonning eng yirik moliya tashkilotlari, ulkan korporatsiyalar, mashhur kompaniya va brendlar rahbarlari borligi, tadbirda 100 dan ortiq davlatdan minglab investor ishtirok etgani oddiy raqamlar emas. Bu O‘zbekistonning investitsion salohiyati va jozibadorligini yaqqol ko‘rsatib beradigan real voqealardir.

Bevosita davlat rahbari Shavkat Mirziyoyevning o‘zi investorlarga katta ishonch beryapti, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga tayyorligini aytayapti. Xorijiy investorlar kengashining forum doirasida o‘tgan yalpi majlisida ham Prezidentning o‘zi investorlarga murojaat qilib, ularning tashabbuslari davlat siyosatida amaliy ifodasini topayotgani, doim bizlarni tinglab, har bir muammo va tavsiyani batafsil muhokama qilishga tayyorligini bildirdi. Xorijlik investorlardan O‘zbekistonda ularning faoliyatlarida yil davomida kuzatilgan muammolar, investitsiya muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha takliflarini so‘radi.

Bu shunchaki muloqot emas, chet ellik ishbilarmonlarga yuksak hurmat, katta ishonch belgisi deb bilaman. Davlat rahbari investorlarni sarmoya kiritishga taklif qilibgina qolmay, ularni yaqin hamkorlik, barcha tomonlar uchun manfaatli sheriklik, katta loyihalarni birgalikda amalga oshirib, mamlakat va dunyo iqtisodiyoti taraqqiyotiga hissa qo‘shishga chorlamogda.

Ishonchim komil, yaqin yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti va sanoati misli ko‘rilmagan darajada rivojlanishda davom etadi. Biz esa ushbu jarayonlarda yirik investitsiyalar kiritish, zamonaviy texnologiyalar va xalqaro tajribani qo‘llash orqali faol ishtirok etish niyatidamiz. Chunki mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyot investorlar imkoniyatini ham kengaytiradi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.



Taklif

ONLAYN XARID: ISTE'MOLCHI HUQUQI QAY DARAJADA HIMOYALANGAN?

Axborot texnologiyalari rivojlanishi xalqaro savdoda elektron tijorat ulushining oshishiga olib keldi. Masalan, 2025-yil holatiga ko'ra, dunyo bo'ylab taxminan 2,77 milliard kishi onlayn xarid qilishni afzal ko'rmoqda. 2025-yilda elektron tijorat global chakana savdoning 21 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2027-yilga kelib, bu ko'rsatkich 22,6 foizga yetishi kutilmoqda.

Mamlakatimizda onlayn tijorat bozori 2021-yilda 201 million AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 543 million dollarga yetdi. 2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda 50 dan ortiq elektron tijorat subyekti ro'yxatdan o'tgan. Ularning umumiy yillik aylanmasi 300 million dollarni tashkil etmoqda. 2027-yilga kelib, ularning aylanmasi 1 milliard dollarga yetishi kutilyapti. O'zbekistonda ro'yxatdan o'tgan Meta, Google, Apple, Booking.com va Zoom kabi kompaniyalar o'tgan yili jami 70 milliard so'm soliq to'ladi. Bundan tashqari, elektron tijorat, fintex va bank xizmatlarini birlashtirgan milliy raqamli ekotizim bo'lgan "Uzum" 2024-yilda qariyb 1,2 trillion so'm soliq to'lagan. Bu 2023-yildagiga nisbatan 28 foiz ko'p. "Uzum" to'lagan soliq mamlakat byudjeti daromadining 0,3 foizini tashkil etgan.

Onlayn savdoning global va mahalliy kengayishi iste'molchilarni himoya qilish va ularning onlayn tranzaksiyalarga ishonchini oshirish nuqtayi nazaridan elektron tijorat qonunchiligini tahlil etishni talab qiladi. Elektron tranzaksiyalar iste'molchilarga narxni osongina taqqoslash va mahsulotlarni do'konlardagiga qaraganda arzon bahoda sotib olish imkonini beradi. Bu afzalliklar O'zbekistonda elektron tijorat hajmining

savdoda sotuvchi bilan bog'lanish imkonini beruvchi aloqa ma'lumotlari (telefon raqami, faks raqami va elektron pochta manzili) muhim bo'lsa-da, qonun sotuvchi (ijrochi) tashkilotining nomi, joylashgan (yuridik) manzili va ish tartibinagina iste'molchilarga ma'lum qilishi shartligini belgilaydi.

Bundan tashqari, ko'plab elektron tijorat platformalari qonun talablariga muvofiq ishlaymaydi. Masalan, hozir O'zbekistondagi eng yirik elektron platformalarda mahsulot haqida faqat ayrim ma'lumotlar, masalan, mahsulotning qisqacha tavsifi va narxi ko'rsatiladi.

Xorijiy tajribani inobatga olgan holda, mamlakatimiz qonunchiligiga shartnomadan sababsiz voz kechish davrini kiritish, bu haqda iste'molchini xabardor qilishning va shartnomadan voz kechishning namunaviy shakllarini joriy etish, masofaviy xarid qilingan qaytarilmaydigan tovarlar ro'yxatini belgilash taklif etiladi.

Elektron tijorat rivojlanishi iste'molchilar uchun yangi imkoniyatlar ochishi bilan birga ularning huquqlarini himoya qilishga oid yangi huquqiy masalalarni ham yuzaga keltirmoqda. Tahlillarga ko'ra, O'zbekiston qonunchiligida iste'molchilarga axborot berish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va masofaviy shartnomalardan voz kechish



oshishiga olib keldi. Biroq bu o'sish iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq qiyinchiliklarni ham keltirib chiqarmoqda.

Birinchidan, onlayn tranzaksiyalarda mahsulotlar va sotuvchilar haqida aniq hamda o'z vaqtida ma'lumot olish muhimligiga qaramay, sotuvchilarning ma'lumot berish bo'yicha shartnomadan oldingi majburiyatlarini to'liq bajarmagani yoki elektron tijorat shaxsizligi sababli iste'molchilar bunday ma'lumotlarni olishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun 5- va 6-moddalarida ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi), savdo va xizmat ko'rsatish qoidalarida hamda tovar (ish, xizmat)lar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish bilan bog'liq qoidalar tartibga solingan. Biroq ushbu ma'lumotlar elektron shartnomalarning xususiyatidan kelib chiqib takomillashtirilgan. Masalan, onlayn

kabi muhim institutlar yetarli darajada takomillashtirilmagan. Xususan, onlayn savdoda sotuvchilarning axborot berish majburiyatlarini aniq belgilanmagan. To'g'ridan to'g'ri marketingni tartibga solish mexanizmlari yetarli emas.

Xorijiy tajriba, ayniqsa, Yevropa Ittifoqi qonunchiligi tahlil mazkur sohada aniq va kompleks huquqiy mexanizmlarni joriy etish iste'molchilar huquqlarini samarali muhofaza etishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Shu bois, O'zbekiston qonunchiligiga masofaviy shartnomalardan sababsiz voz kechish huquqini kiritish, iste'molchilarga taqdim etiladigan axborot turlarini kengaytirish, shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish, xususan, marketing maqsadida aniq tartibga solish maqsadga muvofiq.

Umuman, elektron tijorat sohasida huquqiy bazani takomillashtirish iste'molchilar ishonchini oshirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va bozor ishtirokchilari o'rtasida adolatli raqobat muhitini ta'minlashda juda muhim.

Adiba SAFAROVA,
Qonunchilik va huquqiy siyosat
instituti bosh ilmiy xodimi

Jahon banki tahlillariga ko'ra, mintaqada 37 millionga yaqin kishi suv tanqisligi yuqori bo'lgan hududlarda yashamoqda. 2050-yilga borib, bu raqam ikki barobar oshishi mumkin.



Mulohaza

BARQAROR IQTISODIYOT SOG'LOM EKOTIZIMGA TAYANADI

Boshlanishi 1-betda

Jahon banki tahlillariga ko'ra, mintaqada 37 millionga yaqin kishi suv tanqisligi yuqori bo'lgan hududlarda yashamoqda. 2050-yilga borib, bu raqam ikki barobar oshishi mumkin. Shu nuqtada masala ekologik muhokamadan chiqib, mintaqaviy barqarorlik, davlat siyosati va iqtisodiy strategiya darajasiga ko'tariladi.

Bunday sharoitda ekologiya masalasi oddiy atrof-muhitni muhofaza qilish doirasidan chiqib ketadi. U endi iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy farovonlik va uzoq muddatli taraqqiyotni bevosita belgilaydigan omilga aylanmoqda. Demak, gap alohida sohaviy vazifa haqida emas, balki davlatning umumiy rivojlanish yo'nalishini qayta ko'rib chiqish zarurati haqida ketmoqda. Shu ma'noda, yurtimizda tabiatni muhofaza qilishga iqtisodiy o'sishning tarkibiy qismi sifatida qarala boshladi.

Davlatimiz rahbarining yaqinda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Global ekologik jamg'armasining sakkizinchi assambleyasi ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lidagi keng ko'lamlı islohotlar ahamiyati alohida qayd etildi. Xususan, 2030-yilga qadar muhofaza etiladigan hududlarni respublika umumiy hududining 21 foiziga yetkazish maqsadi belgilangani bu boradagi strategik yondashuvning yorqin ifodasidir.

Mazkur tashabbus nafaqat tabiatni asrash, balki kelajak avlod uchun sog'lom ekologik muhitni saqlab qolish yo'lida muhim qadamdır. Chunki muhofaza etiladigan hududlar tabiiy muvozanatni ta'minlaydigan, iqlim barqarorligini qo'llab-quvvatlaydigan hamda suv resurslarining aylanishini tartibga soladigan o'ziga xos "yashil qalqon" vazifasini bajaradi. Ular biologik xilma-xillikni saqlash bilan birga ekotizimlarning buzilishiga qarshi tabiiy himoya tizimi sifatida ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mutaxassislar bugun respublika hududida muhofaza etiladigan



tabiiy maydonlarning qisqarishi yoki yetarli darajada kengaytirilmasligi iqlim muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidlamogda. Bu holat, o'z navbatida, suv tanqisligi muammosining kuchayishiga ham sabab bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Bugun ekologik muammolar alohida soha doirasida cheklanib qolgan emas. Ular shaharlar o'sishi, transport harakati va sanoat faolligi bilan uzviy bog'langan tizimli holatga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, 2030-yilga qadar havoga zararli tashlamalarni 10,5 foiz qisqartirish vazifasi qo'yilishi ushbu uch yo'nalish o'rtasidagi muvozanatni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Atmosfera ifloslanishini bitta manba bilan tushuntirib bo'lmaydi. U butun tizimning yig'indisi sifatida shakllanadi. Shu sababli yechim ham bir-biri bilan bog'langan qarorlar orqali bo'lishi kerak. Aks holda, bir sohadaagi ijobiy o'zgarish boshqa sohadaagi bosim tufayli yo'qqa chiqishi mumkin.

Bugun dunyo miqyosidagi global muammolardan biri chiqindilardir. Yurtimizda chiqindilardan energiya ishlab

chiqarish yo'nalishida joriy yilda 2 ta, kelgusi ikki yilda yana 9 ta zavodni ishga tushirish rejalashtirilgan. Bu infratuzilma yillik 5,5 million tonna chiqindini qayta ishlash imkonini beradi. Eng muhimi, mazkur jarayon natijasida atmosferaga chiqariladigan issiqxona gazlari hajmi yiliga 1,1 million tonnaga kamayadi. Bu ko'rsatkich chiqindini faqat yo'q qilish bilan cheklanmay, uni ekologik bosimni kamaytiruvchi resurs sifatida qayta baholash yo'nalishi kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

Endilikda inson va tabiat o'rtasidagi munosabat "asrash" yoki "foydalanish" tushunchalaridan ancha keng ma'no kasb etmoqda. Odam qayerda yashamasin, nafaqat muhitdan foydalanadi, balki shu muhitni o'z harakatlari bilan qayta shakllantiradi. Shu ma'noda, ekologik savodxonlik mas'uliyatga aylanib bormoqda.

Mamlakatimizda ekologik ta'lim va ilmiy tadqiqotlar o'zaro bog'langan yagona ekotizim shaklida qayta qurilmoqda. Birgina misol, Green University negizida 10 ta ilmiy-tadqiqot markazi va 14 ta "yashil" texnikum birlashtirildi. Shuningdek, qariyb 2 million

yoshni qamrab olgan ekologik savodxonlikni oshirish jarayoni boshlab yuborildi. Zero, jamiyatning ekologik holati faqat davlat dasturlari bilan emas, odamlarning oddiy kundalik tanlovlari orqali ham belgilanadi. Ekologik savodxonlikni rivojlantirish kelajakni qurishda muhim. Chunki inson tabiatga qanday munosabatda bo'lsa, ertaga tabiat ham unga shu tarzda javob qaytaradi.

Orolbo'yi haqida so'z ketganda, bu hudud oddiy geografik joy sifatida tasavvur qilinmaydi. Bir avlod ko'zi oldida chekingan dengiz, qum ostida qolgan kemalar va suv o'rmini bosgan chang bo'ronlari keladi. Bu manzaralar vaqt o'tishi bilan tabiatning eng og'ir saboqlaridan biriga aylangan. Bugungi ishlar yo'qotilgan ana shu manzarani qaytarishdan ko'ra ko'proq uning o'rmda yangi hayotni shakllantirishga qaratilgan.

Orolbo'yida 2 million gektardan ortiq qum bosgan dala, sug'orish tizimidan uzilgan maydonlar va yillar davomida unumdorligini yo'qotgan yerlarni qayta tiklash jarayonlari bu yondashuvning amaldagi ko'rinishidir. Bu yerda gap faqat tabiatni tiklash haqida emas, balki inson va tabiat o'rtasidagi uzilib qolgan bog'liqlikni qayta tiklash haqida ham ketmoqda.

Shu bilan birga, ekologik muammolarni bir hudud doirasida qoldirib bo'lmaydigan tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Suv taqchilligi, havo ifloslanishi va yer degradatsiyasi kabi masalalar chegara tyanlamaydi. Bir hududda boshlangan muammo boshqa hududda og'ir oqibat sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu bois, ekologik siyosatda hamkorlik va birgalikda harakat qilish ehtiyoji kuchayib bormoqda.

Aynan shu ehtiyoj natijasida "Eco Expo Central Asia" platformasi yo'lga qo'yildi. U hududlar va sanoat qatamlaridagi ekologik chiqirqlarni bir maydonda jamlab, ularni amaliy yechimlar va "yashil" investitsiyalar bilan bog'lashga xizmat qiladi.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

GERMANIYADAN NASLLI QORAMOLLAR OLIB KELINDI



Tashabbus

Bugun har bir davlatning oziq-ovqat xavfsizligi va aholisining sifatli ta'minotga ehtiyoji aynan chorvachilikning ilmiy asosda rivojlanishiga bevosita bog'liq. Shu ma'noda, naslchilik sohasidagi har bir yangilik uzoq yillik natijalarni belgilab beruvchi muhim omil sifatida baholanadi.

Kuni kecha Germaniyadan 166 bosh genetik baholangan naslli qoramol mamlakatimizga olib kelindi. Chorvachilik va yaylov xo'jaligini rivojlantirish agentligining ushbu tashabbusi chorvachilik sohasini zamonaviy bosqichga olib chiqish, naslchilik tizimini rivojlantirish hamda fermer xo'jaliklarining mahsuldorlik ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan.

Keltirilgan qoramollar dunyoda yuqori baholanadigan golshteyn, simmental, aberdin-angus va limuzin kabi zotlarga mansub bo'lib, genetik salohiyati va yuqori mahsuldorlik ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi. Xususan, golshteyn zoti sut yo'nalishida yuqori samara berishi, aberdin-angus va limuzin esa go'sht yo'nalishida tez vazn to'plashi bilan mashhur.

166 bosh qoramolning taqsimoti ham tizimli yondashuv asosida amalga oshirilmoqda.



Jumladan, 11 bosh golshteyn, 16 bosh simmental, 4 bosh aberdin-angus zoti nasldor g'unajinlar hamda 18 bosh golshteyn, 4 bosh aberdin-angus, 6 bosh simmental va 1 bosh limuzin zoti nasldor buqalar agentlik huzuridagi Naslchilik ilmiy-ishlab chiqarish markaziga yetkazilmoqda. Bu esa ilmiy asosda seleksiya ishlari davom ettirish uchun muhim baza vazifasini o'taydi.

Shuningdek, 26 bosh naslli bo'g'oz g'unajin Toshkent viloyatidagi "Farodis xirmoni" fermer xo'jaligiga, 79 bosh nasli g'unajin esa Navoiy viloyatidagi "Yangi asr" fermer xo'jaligiga yo'naltiriladi. Bu orqali fermer xo'jaliklarida naslchilik ishlari kengaytirish, sut va go'sht mahsuldorligini oshirish hamda mahalliy sharoitga

mos, yuqori samarali podalarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

— Mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirish, aholini sifatlı go'sht va sut mahsulotlari bilan ta'minlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbarining joriy yil 12-maydagi "Chorvachilik tarmog'i va yaylov xo'jaligini zamonaviy boshqaruv tizimi va yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sohada yangi imkoniyatlar eshigini ochdi, — deydi Chorvachilik va yaylov xo'jaligini rivojlantirish agentligi mas'ul xodimi Matyoqub Matyoqubov. — Mazkur qaror asosida chet davlatlardan yuqori mahsuldor naslli qoramollarni olib kelish jarayoni boshlandi. Bu, o'z navbatida, nafaqat fermer xo'jaliklarining

moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, balki butun tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan strategik qadam sifatida baholanmoqda. Chunki bugun ichki bozorni sifati mahsulot bilan ta'minlash bilan birga kelajakda eksport salohiyatini oshirish ham muhim vazifalar qatorida qolmoqda.

Naslli qoramollarni import qilishda belgilangan soliq imtiyozlari, xususan, qo'shilgan qiymat solig'ining bekor qilinishi hamda har bir qoramol uchun 4 million so'm subsidiya ajratilishi fermerlar uchun katta moliyaviy yengillik yaratib, sohaga xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirmoqda.

Germaniyadan olib kelinayotgan qoramollar yuqori genetik salohiyatga ega bo'lib, sigirlardan o'rtacha 35-40 litrgacha sut olish imkoniyati mavjud. Buqalar esa to'g'ri parvarishlansa, kunlik 1-1,5 kilogrammgacha vazn to'plashi mumkin. Bunday naslli jonivorlarning mamlakatga olib kiritilishi chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish, zamonaviy fermer xo'jaliklarini shakllantirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Naslli qoramollarning mamlakatimizga olib kiritilishi bir martalik tadbir bo'lib qolmay, uzoq muddatli strategik jarayonning muhim bo'g'inidir. Chunki chorvachilikda natija tezda emas, balki yillar davomida shakllanadigan tizimli mehnat, ilmiy yondashuv va to'g'ri seleksiya siyosati orqali yuzaga chiqadi.

Bunday tashabbuslar orqali qishloq xo'jaligida samaradorlik va genetik barqarorlik muhim o'rin egallaydi. Bu, o'z navbatida, fermer xo'jaliklarining daromadini oshirish, qishloq hududlarida bandlikni ta'minlash va aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Eng muhimi, chorvachilikdagi bu kabi sa'y-harakatlar mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan birga kelajak avlod uchun barqaror iqtisodiy poydevor yaratishga qaratilgan.

Sardor SHUHRAT o'g'li,
jurnalist



2026-yil boshida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni 12,5 milliondan oshgan. Portalning mobil ilovasida 600 dan ziyod elektron xizmat mavjud bo'lib, mobil foydalanuvchilar soni 7,5 milliondan ortiqni tashkil etmoqda.

MEZON 5

2026-yil 20-iyun, 124-son



Akbar SAFAROV,
Oliy ta'limni rivojlantirish va
global hamkorlik markazi
boshqarma boshlig'i

Boshlanishi 1-betda

Bu esa har bir insondan zamon bilan hamnafas bo'lishni, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishni talab etmoqda. Raqamli savodxonlik deganda faqat kompyuter yoki mobil qurilmalardan foydalanishni bilish tushunilmaydi. U axborotni yashash va saralash, ishonchligini baholash, elektron xizmatlardan unumli foydalanish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda internet makonida xavfsiz harakatlanish kabi ko'nikmalarni ham qamrab oladi.

Mutaxassislar ta'kidicha, XXI asrda o'qish, yozish va hisoblash qatorida raqamli savodxonlik ham insonning asosiy kompetensiyalaridan biriga aylanmoqda. Chunki bugungi globalashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida muvaffaqiyatga erishish, munosib ish topish hamda raqobatbardosh bo'lish ko'p jihatdan insonning raqamli ko'nikmalariga bog'liq. Shu ma'noda, raqamli savodxonlik endi shaxsiy rivojlanish vositasi bo'lish bilan birga jamiyat va davlat taraqqiyotining muhim omillaridan.

Ilg'or jamiyat sari

So'nggi yillarda mamlakatimizda raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlari ko'lamini kengaytirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish hamda aholining raqamli ko'nikmalarini oshirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur strategiya nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, balki davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va fuqarolar uchun qulay xizmatlar muhitini yaratishga xizmat qilyapti. Jumladan, davlat xizmatlarining katta qismi elektron shaklda ko'rsatilmoqda.

Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotiga ko'ra, 2026-yil boshida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni 12,5 milliondan oshgan. Portalning mobil ilovasida 600 dan ziyod elektron xizmat mavjud bo'lib, mobil foydalanuvchilar soni 7,5 milliondan ortiqni tashkil etmoqda. Joriy yilda raqamli davlat xizmatlarini kengaytirish maqsadida ularning sonini 900 taga yetkazish, 50 dan ortiq xizmatda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, biznesni ro'yxatdan o'tkazish, bank kartalari va SIM kartalarni rasmiylashtirish kabi jarayonlarni to'liq raqamlashtirish rejalashtirilgan.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi natijalar ham e'tiborga molik. Bugun AT parki rezidentlari soni 2800 dan oshgan. Ularning 750 dan ortig'i xorijiy kompaniyalardir. Axborot texnologiyalari sohasida 40 mingga yaqin yosh faoliyat yuritmoqda, AT xizmatlari eksporti qiymati esa so'nggi besh yilda qariyb bir milliard dollarga yetdi. Bu ko'rsatkichlar fuqarolarning raqamli xizmatlarga ehtiyoji va ishonchi tobora ortib borayotganidan dalolat beradi. Eng muhimi, raqamlashtirish natijasida ko'plab hujjatlar, ma'lumotnomalar, to'lovlar va murojaatlar bir necha daqiqada elektron tarzda bajarilmoqda. Natijada vaqt tejali, byurokratik to'siqlar qisqarmoqda, davlat xizmatlarining ochiqchiligi va shaffofligi esa yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

SAVODXONLIK

zamonaviy shaxsning asosiy ko'nikmasi

Internet — imkoniyatlar maydoni

Raqamli savodxonlik rivojlanishida internet muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda internet qamrovi va undan foydalanuvchilar soni barqaror o'sib bormoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, 2026-yilga kelib, yurtimizda global tarmoq foydalanuvchilari soni 33 milliondan oshdi. Bu aholining qariyb 89-94 foizi degani. Mobil aloqa ulanishlari soni esa 34 milliondan ortiqni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkichlar internetning jamiyat hayotiga tobora chuqur kirib borayotganidan dalolat. Bugun o'quvchilar va talabalar onlayn ta'lim platformalaridan foydalanmoqda, tadbirkorlar elektron tijorat orqali yangi bozorlarga chiqmoqda, olimlar va mutaxassislar xalqaro axborot resurslari bilan ishlamoqda, fuqarolar esa ko'plab davlat xizmatlarini masofadan turib olmoqda. Ya'ni zamonaviy hayotning deyarli barcha jabhasi raqamli muhit bilan uzviy bog'liq.

Ammo internetdan foydalanish imkoniyati mavjudligi har doim ham undan samarali va xavfsiz foydalanish ko'nikmasi shakllanganini anglatmaydi. Bugun axborotni saralash, ishonchligini baholash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda kibernetik xizmatlarga

savodxonlik faqat texnik ko'nikmalar bilan cheklanib qolmaydi. U, avvalo, axborotni tanqidiy tahlil qilish, manbalarni solishtirish, ma'lumot ishonchligini tekshirish va yolg'on xabarlardan himoyalashni ham qamrab oladi. Har bir fuqaro internetda uchraydigan har qanday ma'lumotni darhol qabul qilmay, uning manbasi, maqsadi va haqqoniyligini baholash ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

Shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, kuchli parollardan foydalanish, ikki bosqichli autentifikatsiyani qo'llash va kibernetik xizmatlarga amaliy qo'llash bugunning muhim talablaridan. Chunki raqamli makondagi beparvolik nafaqat shaxsiy ma'lumotlarning yo'qolishiga, balki moliyaviy zarar va boshqa salbiy oqibatlar ham olib kelishi mumkin. Mutaxassislar ta'kidlaganidek, kelajakda axborot bilan ishlash madaniyati va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari o'qish va yozish kabi muhim kompetensiyalardan biriga aylanadi. Zero, raqamli davrda eng qimmat resurs axborot bo'lsa, uni to'g'ri tahlil qilish va undan oqilona foydalanish muvaffaqiyatning muhim omilidir.

Kelajak kasblarining kaliti

Bugun mehnat bozorida raqamli ko'nikmalarga ega mutaxassislar talab



amal qilish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mutaxassislar ta'kidlaganidek, raqamli infratuzilmani rivojlantirish bilan bir qatorda jamiyatda raqamli madaniyat va mediasavodxonlikni yuksaltirish ham ustuvor vazifalardan. Internet imkoniyatlar maydoni bo'lishi bilan birga undan oqilona foydalanishni ham talab etadi. Shu bois, raqamli savodxonlik bugun raqamli texnologiyalarni bilish, balki axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish masalasidir.

Soxta axborotlar davrida tanqidiy fikrlash zarurati

Raqamli texnologiyalar — katta imkoniyat. Biroq axborot oqimining keskin ortishi bilan bog'liq yangi xavf-xatarlar ham mavjud. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalari ommalashuvi natijasida soxta axborotlar, manipulyativ materiallar va yolg'on mahsulotlar tobora ko'paymoqda. Endi oddiy rasm, audio yoki videoning haqiqiylikni aniqlash ham ancha murakkab. Xalqaro tadqiqotlarda kibernetik, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash va sun'iy intellekt yordamida yaratilgan soxta kontent global miqyosdagi eng jiddiy raqamli tahdidlardan biri sifatida baholalanayotgani bejiz emas. Mutaxassislar fikricha, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilyotgan tekshirilmagan ma'lumotlar jamoatchilik fikriga, ijtimoiy barqarorlikka va hatto iqtisodiy jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday sharoitda raqamli

jadal sur'atda ortib bormoqda. Dasturlash, ma'lumotlar tahlili (Data Analytics), kibernetik xavfsizlik, sun'iy intellekt, robototexnika, bulutli texnologiyalar, raqamli marketing va elektron tijorat kabi yo'nalishlar eng istiqbolli kasblar qatoridan joy olmoqda. 2030-yilgacha sun'iy intellekt va raqamlashtirish natijasida millionlab yangi ish o'rinlari ochiladi. Ayni paytda ayrim an'anaviy kasblar mazmunan o'zgaradi yoki avtomatlashtiriladi. O'zbekistonda ham AT sohasi iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. So'nggi yillarda axborot texnologiyalari sohasida ochilayotgan yangi ish o'rinlari soni ham izchil o'rtgan. Yoshlarni zamonaviy kasblarga tayyorlash maqsadida AT parklaridan tashqari "Bir million o'zbek dasturchisi", "Besh million sun'iy intellekt yetakchisi" loyihalari, o'quv markazlari hamda oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalariga oid ta'lim dasturlari keng joriy etilmoqda. Natijada minglab yoshlar xalqaro AT kompaniyalari va xorijlik buyurtmachilar bilan masofadan turib ishlash imkoniyatiga ega bo'lmog'la.

Yaqin yillarda sun'iy intellekt ayrim takrorlanuvchi vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin. Biroq bu jarayon yangi texnologiyalarni boshqaradigan, ma'lumotlar bilan ishlaydigan, kreativ va tanqidiy fikrlay oladigan mutaxassislar ehtiyojini yanada oshiradi. Shu bois, bugungi yoshlar uchun raqamli ko'nikmalarni egallash nafaqat sifatli

vositalaridan foydalanish imkoniyati kengaygan. Ayniqsa, ta'lim islohotlari natijasida axborot texnologiyalari va xorijiy tillarni o'qitishga alohida e'tibor qaratilyapti. Umumta'lim maktablarida informatika fanining mazmuni yangilani, dasturlash, robototexnika va sun'iy intellekt asoslarini o'rgatishga qaratilgan zamonaviy o'quv dasturlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Joriy yilga kelib mamlakatimizda oliy ta'limga qamrov darajasi 50 foizdan oshdi, axborot texnologiyalari yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar soni esa bir necha barobar ko'paydi. Oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili, kibernetik xavfsizlik va dasturiy injiniring kabi yo'nalishlar bo'yicha yangi ta'lim dasturlari yo'lga qo'yildi. Bu esa raqamli iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirishning o'zi yetarli emas. Muhimi, o'quvchilarda axborot bilan ishlash madaniyati, mustaqil izlanish ko'nikmalari, mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishdir. Chunki kelajakda muvaffaqiyatga erishadigan yoshlar nafaqat texnologiyalardan foydalana oladigan, balki axborotni tahlil qiladigan, muammolarga innovatsion yechim topadigan va yangilik yaratishga qodir mutaxassislar bo'ladi. Xalqaro ekspertlar ham inson kapitali va raqamli ko'nikmalarni zamonaviy taraqqiyotning asosiy omili sifatida e'tirof etmoqda. Shu ma'noda, O'zbekistonda ta'lim sohasidagi keng qamrovli islohotlar mamlakatning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qilyapti. Demak, bugunning eng muhim vazifasi nafaqat internet tarmoqlari va zamonaviy texnologiyalarni kengaytirish, balki ulardan samarali foydalana oladigan, raqamli madaniyatga ega, bilimli va tashabbuskor avlodni tarbiyalashdir. Zero, yangi O'zbekistonning ertangi taraqqiyoti aynan bugun ta'lim olayotgan yoshlarning bilimi va salohiyatiga bevosita bog'liq.

Taraqqiyot poydevori

Raqamlashtirish aholiga qulaylik yaratish, davlat xizmatlari shaffofligini ta'minlash va inson omili bilan bog'liq ortiqcha byurokratik jarayonlarni qisqartirayotgani rost. Bu esa davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilayotganidan dalolat beradi. Biroq har qanday texnologik yutuq markazida inson omili turadi. Eng zamonaviy serverlar, yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari yoki sun'iy intellekt tizimlari qanchalik rivojlangan bo'lmasin, ulardan oqilona va samarali foydalana oladigan fuqarolar bo'lmasa, kutilgan natijaga erishish mushkul. Shu bois, endi raqamli savodxonlik bilan birga raqamli madaniyatni shakllantirish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli madaniyat, avvalo, internet va axborot resurslaridan mas'uliyat bilan foydalanish, axborot xavfsizligi qoidalariga amal qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash, mualliflik huquqini hurmat qilish hamda virtual makonda muloqot etikasiga rioya etishni anglatadi. Ayniqsa, sun'iy intellekt va ijtimoiy tarmoqlar davrida axborotni tanqidiy baholash, yolg'on xabarlarini ajrata olish va ishonchli manbalarga tayanish har bir fuqaro uchun muhim ko'nikmaga aylanmoqda. Raqamli iqtisodiyotning muvaffaqiyati nafaqat texnologik infratuzilma, balki jamiyatning raqamli madaniyati darajasi bilan ham belgilanadi. Shuning uchun ham bugun maktabdan tortib, oliy ta'limgacha, davlat tashkilotlaridan xususiy sektorgacha bo'lgan barcha bo'g'inda raqamli madaniyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ymoqda. Bu sharoitda raqamli savodxonlik qo'shimcha afzallik emas, balki zamonaviy hayotning ajralmas talabi va muvaffaqiyat garoviga aylanayotir. Shu bois, raqamli ko'nikmalarga investitsiya kiritish kelajakda investitsiya kiritish demak. Bugungi davr qahramonlari zamonaviy bilimlarga ega, texnologiyalarni puxta egallagan, tanqidiy fikrlaydigan va innovatsion g'oyalarni hayotga tabiiy etadigan yoshlardir. Yangi O'zbekistonning ertangi kuni ham aynan ana shunday intellektual salohiyatli, raqamli madaniyatga ega avlod qo'lida bunyod etiladi. Zero, raqamli savodxonlik nafaqat bugunning talabi, balki ertangi taraqqiyotning ishonchli poydevori.

Yangi O'zbekistonda insonni qadrlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Ayniqsa, nogironligi bo'lgan shaxslar, alohida ehtiyojga ega bolalar va yoshlar uchun teng imkoniyat yaratish, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash inklyuziv jamiyat qurishning muhim shartlaridan. Ammo inklyuziv jamiyatni faqat davlat idoralari yoki mutaxassislar ishtirokida qurib bo'lmaydi. Bu jarayonda eng muhim kuch — yoshlarning o'zi. Chunki bugungi o'g'il-qizlar nafaqat ertangi kun egasi, balki hozirgi o'zgarishlarning faol ishtirokchisi hamdir. Ularning fikri, tashabbusi va innovatsion g'oyalari jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda.

INKLYUZIV JAMIYAT BARPO ETISHDA YOSHLARNING FIKRI MUHIM



Buning yorqin namunalaridan biri Samarqand shahrida tashkil etilgan "Fikr ber!" ("Voice UP") xalqaro inklyuziv yoshlar oromgohi bo'ldi. Mazkur platforma O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Turkiyadan kelgan faol yoshlarni yagona maqsad — inklyuziv va adolatli jamiyat qurish g'oyasi atrofida birlashtirdi.

"Fikr ber!" loyihasining o'ziga xos jihati shundaki, unda yoshlar faqat tinglovchi emas, balki muallif va tashabbuskor sifatida ishtirok etdi. Oromgoh doirasida autizm spektridagi bolalar uchun kommunikatsiya tizimlarini yaratish, nogironligi bo'lgan yoshlar uchun sun'iy intellekt asosida ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, inklyuziv turizmni rivojlantirish, ko'zi ojiz bolalar uchun innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish, adaptiv kiyim-kechaklar ishlab chiqish kabi o'nlab loyihalar taqdim etildi. Ushbu tashabbuslar yoshlarning jamiyatdagi muammolarini chuqur his etayotgani va ularni hal etishga tayyor ekanini yaqqol namoyon etdi.

Eng muhimi, bu loyihalar faqat g'oya sifatida qolib ketmadi. Ularning aksariyatiga amaliy tavsiyalar berildi, ayrimlari esa Ijtimoiy himoya milliy agentligi va hamkor tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi ma'lum qilindi. Bu esa yoshlarning ovozi eshitilayotgani, ularning fikri real qarorlar va amaliy harakatlarga aylanayotganining yaqqol isbotidir.

Globalashuv davrida inklyuziya masalalari bir mamlakat chegarasida hal etiladigan jihat emas. Shu bois, loyiha doirasida 8 davlat yoshlarini birlashtiruvchi Xalqaro inklyuziv yoshlar ko'mitasi tashkil etilgani alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur tuzilma yoshlar tashabbuslarini xalqaro miqyosda qo'llab-quvvatlash, ta'lim va raqamli inklyuziya bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirish,

nogironligi bo'lgan yoshlarning imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Inklyuziv jamiyat qurishda volontyorlik harakati ham muhim o'rin tutadi. Samarqand shahrida o'tkazilgan "Chegarasiz volontyorlik: tajriba, hamkorlik va yangi tashabbuslar" xalqaro muloqot maydonida volontyorlik sohasida ilg'or tajribalar muhokama qilinib, Markaziy Osiyo va Ozarbayjon Xalqaro volontyorlik akademiyasini tashkil etish bo'yicha memorandum imzolandi. Ushbu akademiya yoshlarning bilim va ko'nikmalarini boyitish, tajriba almashish, inklyuziv volontyorlikni rivojlantirish va yangi xalqaro loyihalarni amalga oshirish uchun muhim maydonga aylanishi kutilmoqda.

Zero, ezigulik madaniyati hayotimizning ajralmas qismiga aylanishi, ko'mak berishga intilish esa har bir fuqaroning ongli tanloviga aylanishi zarur. Bu g'oya aslida inklyuziv jamiyatning bosh tamoyilidir. Chunki inklyuziya faqat infratuzilma yoki qonunchilik emas, avvalo, insonlarning dunyoqarashi, bir-biriga hurmati va hamjihatligi.

Bugun yoshlar ilgari surayotgan tashabbuslar ular inklyuziv jamiyatni tasavvur qilish barobarida uni amalda yaratishga ham tayyor ekanini ko'rsatmoqda. Ularning loyihalari, volontyorlik faoliyati va xalqaro hamkorlikka intilishi yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda. Shunday ekan, inklyuziv jamiyat qurish yo'lidagi eng muhim vazifalardan biri yoshlarning fikrini eshitish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va qarorlar qabul qilish jarayoniga faol jalb etishdir. Zero, bugungi yoshlarning ovozi — ertangi yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.

Azizxon BAHODIROV,
Ijtimoiy himoya milliy agentligi
bosh mutaxassisi



Xalqimiz “O‘zbekiston bulbuli” deb e’tirof etgan Tavakkal Qodirovning umr yo‘li, ijodiy faoliyati ko‘plar uchun ibratli. Milliy madaniyatimiz rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan san’atkorning yuzdan ortiq qo‘shig‘i milliy san’atimizning oltin fondini bezab turibdi. San’atkor tavalludining 100 yilligi UNESCO tomonidan keng nishonlanayotgani esa uning ijodiy merosini saqlash va rivojlantirishda yangi imkoniyat eshiklarini ochdi. Joylarda mazkur sana munosabati bilan ilmiy-amaliy seminar, xalqaro ko‘rik-tanlovlar, madaniy tadbirlar o‘tkazilayotgani O‘zbekiston xalq artisti Tavakkal Qodirovning o‘lmas ijodiy merosi iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashda o‘ziga xos maktab vazifasini o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Bedazorda tug‘ilgan bola

Javzo oyining o‘rtalarida yoqqan yomg‘ir Xalifa adirlklaridan oqib Sultonobod qishlog‘ining ekinzorlari bo‘ylab keladi. G‘arbdan esayotgan mayin shabada kishiga huzur bag‘ishlaydi. Uzunzorlarda chilgi endi chumak urg‘an, o‘rik g‘o‘ralariga suv yugurgan. Bog‘larda turfa qushlarning sayroqi ovozi tinmaydi...

Sakkiz farzandining dog‘ida yurak oldirib qo‘ygan ona to‘qqizinchi zurriyodini dunyoga keltirish uchun hech kimga, hatto turmush o‘rtog‘iga ham bildirmay hovli etagidagi bedazorga qarab yurib borardi. To‘qqizinchi farzandini shu yer bag‘rida tug‘ishga ahd qilgandi. Keksa momolar irimiga ko‘ra, farzandi turmagan ona uydan tashqarida, hech kimning nazoratisiz yolg‘iz tug‘ishi kerakligini bot-bot esga olib, to‘lg‘oq azoblariga tishini tishiga qo‘yib chidab, chaksa terga botib borardi. “Farzandimni shu yerda tug‘i aman. Tavakkal, yo yerniki bo‘lar, yoki meniki” xayolidan o‘tkazdi To‘tib. Birinchi bor qalbidan otilib chiqqan “Tavakkal” so‘zi mushfiq ona xotirasiga muhrlanib qoldi. Tug‘ilajak farzandi o‘g‘il bo‘lsa, ismini Tavakkal deb qo‘yishni diliga tugdi...

Ustozning bosib o‘tgan hayot yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, gohida muvaffaqiyat, gohida hayot tashvishlari bilan o‘tgan umr bekatlarini tasavvur qilamiz. U qayerga bormasin, halol mehnati bilan qo‘shiq shinavandalari olqishlariga, hurmat-e’tiboriga sazovor bo‘lgan.

Tavakkal Qodirov tavalludining 100 yilligi

BULBULLAR JO‘R BO‘LGAN



Sultonali MANNOPOV, Farg‘ona davlat universiteti professori, O‘zbekiston xalq artisti

navolar

pallasiga chaqaloq, ikkinchi pallasiga bug‘doy qo‘yilib, doya enagadan sotib olindi. Turg‘un chevar xonadonma-xonadon yurib, qirq xil yamoq yig‘di va shu yamoqlardan chaqaloqqa atab quroq to‘ncha tikib berdi. Urf-odatlarga ko‘ra, farzandi turmagan onalar mana shunday udumlarga amal qilishi kerak bo‘lgan.

Bolalikdagi ilk qo‘shiq tug‘yoni

Abdualilboyning qishloq o‘rtasidagi hovlisi qo‘rg‘oni bilan maktabga berilgan bo‘lib, mulla Qodir akaning hovlisiga devor-darmiyon edi. Tavakkal maktab sari oshiqib kelayotgan bolalarga havas bilan qarardi. Qani endi zetroq ulg‘aysa-yu, mahalla bolalari qatorida maktabga borsa... Yugurik yillar ko‘z yumguncha o‘tib ketdi. Zehni o‘tkir, harakatchan Tavakkal o‘rta maktabning a‘lochi o‘quvchilari qatoridan joy oldi. Qiyinchilik davrlar, hamma tirikchilik bilan ovora. Ukalari yosh bo‘lgani bois, uydagi mol-qo‘ylarni boqish Tavakkalning zimmasida edi. Ana shunday kunlarning birida maktabda badiiy havaskorlik to‘garagi ochilib, uni sozanda G‘ofirjon Hoshimov boshqara boshladi.

Tavakkal kechqurunlari otasiga choyxona yumushlariga qarashardi. Bu yerda qishloqning sozanda-xonandalari to‘planib, turli konsert, askiya, o‘yin-kulgi kechalari o‘tkazish odatga aylangandi. Yosh Tavakkal davralarda ijro etilgan har bir kuy, qo‘shiqqa hamohang bo‘lishga harakat qilardi. Qo‘shiqlarning avji pallasida qo‘lidagi choynakni ham unutib, bir dam to‘xtab, kuy, qo‘shiq sehriga cho‘mardi. Sakkiz-to‘qqiz yashar bolaning sinchkov nigohlari, yonib turgan ko‘zlarini ko‘rgan G‘ofir aka uni imlab yoniga chaqirdi.



— Qo‘shiq, kuy ilmiga tashnalik yosh hofizni Farg‘ona san’at bilim yurti sari yetakladi. U o‘sha davrlarda xalqimizga yaxshigina tanilib qolgandi. Shu bois, viloyat o‘zbek teatriga ishga taklif qilinib, 20-yil davomida shu jamoada samarali mehnat qildi. “Bizni tashlab”, “Fasli navbahor o‘ldi”, “Shunchamidi”, “Kecha oydin”, “Gulg‘uncha”, “Jamollaringdan”, “Arzimni aytdim”, “So‘zi shirin yorimdan”, “O‘zbekistonim”, “Farg‘onam mening”, “Bar mulki dilam”, “O‘rgilay” singari o‘nlab mashhur qo‘shiqlari hanuz shinavandalar qalbida.

Ustozning ijodiy ko‘lami juda sermazmun bo‘lib, yuzdan ortiq ijrosi respublika teleradiokompaniyasining oltin fondidan o‘rin olgan. Ayniqsa, 90-yillarda Abduhoshim Ismoilovning ansambli bilan yigirmadan ortiq qo‘shig‘ini yangidan yozdi. Ko‘p seriyali videofilm, telefilm uchun videotasmaga tushirildi. 1989-yilda san’atdagi ulkan xizmatlari uchun “O‘zbekiston xalq artisti” unvoniga sazovor bo‘ldi. Umrining oxirigacha Farg‘ona davlat universiteti professori lavozimida ilmiy pedagogik faoliyat bilan shug‘ullandi. 1996-yil 13-aprel kuni 70 yoshida bu dunyoni tark etdi.

Ustozning bosib o‘tgan hayot yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, gohida muvaffaqiyat, gohida hayot tashvishlari bilan o‘tgan umr bekatlarini tasavvur qilamiz. U qayerga bormasin, halol mehnati bilan qo‘shiq shinavandalari olqishlariga, hurmat-e’tiboriga sazovor bo‘lgan. Buyuk san’atkor hamisha hayotga, qo‘shiqqa, odamlarga tashna bo‘lib yashadi. San’at deb atalmish ummonning sermashaqqat to‘lqinlarini kuylab o‘tdi. Uning qo‘shiqlari kirmagan xonadon yo‘q. Hofizlik san’atida “Tavakkal akaning yo‘li” degan e’tirofga sazovor bo‘ldi. Yuzlab shogirdlar bu uslubdan hanuzga qadar bahramand bo‘lyapti. “O‘zbekiston xalq artisti” yuksak unvoni berilishi va vafotidan 25 yil o‘tib, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlanishi ustozning san’at sohasidagi ulkan ishlariga munosib mukofot bo‘ldi.

bir oz silliqlashdi, avjiga ko‘tarilganda esa ingichkaroq bo‘lib o‘ziga xos joziba bilan jarangladi. Skripkada jo‘r bo‘lib, qo‘shiqni oxiriga qadar eshitgan ustoz yosh ijrochini yanada qo‘llab-quvvatladi.

— Barakalla, shunchalik yoqimli ovozning borligini bilmagan ekanman. Dugohni ham maromida ijro etding, lekin bu ashula sening yoshingga og‘irlik qiladi. Hozircha sal yengilroq ashulalar aytishing kerak. Ustozlar kuylayotgan qo‘shiqlarni o‘rganib olaver, ammo aytishga shoshilma. Ovozni bolalik, o‘smirlik davridan asrash kerak. Aytganlarimga amal qilib, ovozingni asrab borsang, nafasing hech kimnikiga o‘xshamaydigan yoqimli bo‘ladi.

Tavakkal shu kuni ilk bor hamqishloqlari oldida qo‘shiq kuyladi. Qo‘shiq avvalidagi bir oz hayajon asta-sekin unutildi. U usta xofizlardek maromiga yetkazib qo‘shiq ijro etdi. Qo‘shiq tugaganidan so‘ng atrofini olqishlar, maqtoqlar tutib ketdi. “Baraka top!”, “Otangga rahmat!” degan xitoblar yangradi.

Yoz fasli mamlakatimiz madaniy hayotida zalvarli yangilanish va yutuqlar bilan boshlandi. Bu jarayon nafaqat ijod ahli, balki butun jamiyatimiz uchun ahamiyatga molik voqea sifatida e’tirof etildi.

Kamolot pillapoyasi

MADANIYAT VA SAN’AT –
MILLAT RUHIYATI KO‘ZGUSI

1-iyun kuni Prezidentimiz madaniyat, san’at va adabiyot vakillari bilan uchrashdi. Oradan bir kun o‘tib, madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha davlatimiz rahbarining farmoni e’lon qilindi. Farmonda madaniyat, san’at, adabiyot, tasviriy san’at va kinematografiya yo‘nalishlarini uyg‘un tarzda rivojlantirishga alohida urg‘u berilgan. Unda belgilangan

vazifalar soha vakillari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Yosh iste’dod — professional san’atkor

— Farmonda tasviriy va amaliy san’atni rivojlantirish madaniy, ma’naviy-tarbiyaviy



vazifa sifatida talqin etilgan. Shuningdek, milliy san’at brendini shakllantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, o‘zbek san’atini jahon miqyosida targ‘ib etish kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan, — deydi O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi, xalq rassomi Akmal Nuriddinov. — Bu esa yosh avlod qalbida milliy qadriyatlarimizga hurmat, tarixiy merosimizga sadoqat va yuksak estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ijodkorlarni rag‘batlantirish, ular uchun munosib shart-sharoit yaratishga qaratilgan mexanizmlar soha vakillarining erkin va samarali ijod qilishi uchun mustahkam zamin bo‘ladi. Badiiy ta’limni uzluksiz tizim sifatida rivojlantirish ham

ustuvor vazifalardan. Bu orqali “yosh iste’dod — professional san’atkor” zanjiri shakllanadi va kelajakda raqobatbardosh ijodkorlar avlodi kamol topadi. Rassom va haykaltaroshlar uchun zamonaviy ustaxonalar tashkil etilmoqda. Ko‘rgazmalar ko‘lami kengaymoqda. Xalqaro biennale va art-loyihalarda tasviriy va amaliy san’at sohasi vakillari ishtiroki ko‘paymoqda. Shu bilan birga, milliy rassomchilik maktablarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘tgan davrga qiyoslaganda, soha ijodkorlari yil sayin katta imtiyozlarga ega bo‘layotir. Tasviriy san’atga e’tibor tufayli katta siljish ro‘y bermogda. O‘zbek rassomlarining xalqaro ko‘rgazmalardagi ishtiroki oshmoqda. Shu yil may oyida Andijonning Bobur shahrida tashkil qilingan birinchi Rassomlar festivali san’atimiz kundaligida butunlay yangi sahifa ochib berdi.

Davlatimiz rahbarining mazkur farmoni yosh ijodkorlarning iste’dodini yuzaga chiqarish, qo‘llab-quvvatlash va badiiy tafakkurini teranlashtirishga xizmat qiladi. Chunki badiiy ta’limning uzluksizligini ta’minlash, maktabdan oliy ta’limgacha bo‘lgan zanjirni mustahkamlash orqaligina yoshlar salohiyati to‘liq namoyon bo‘ladi. Shu jarayonda yoshlarga tajribali pedagoglarning

bilimi, tajribasi va sabog‘i juda asqatadi. Respublika ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati o‘qituvchisi Hikmatulla Fayzullayev ko‘p yildan buyon rassomlik va naqqoshlik yo‘nalishida ta’lim berib kelayotir. Joriy yilda u “O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi” faxriy unvoniga munosib ko‘rildi.



— Hozirgi shiddatli davrning muhim vazifalaridan biri iste’dodli yoshlarni kashf etish, iqtidorini yanada shakllantirish, tarbiyalash va jahon sahnasiga olib chiqishdir. Ayniqsa, san’atdagi yutuqlar millatning madaniy nufuzini belgilaydi, — deydi O‘zbekiston xalq ustasi Hikmatulla Fayzullayev. — Madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini rivojlantirishga doir

farmonda ijodiy ustaxonalar tashkil etish, yosh rassomlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ko‘rgazmalarini muntazam o‘tkazish kabi vazifalar belgilangani iste’dodli avlodning kamol topishiga xizmat qiladi. Xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan alohida e’tibor esa milliy san’atimizni global brendga aylantirish imkoniyatini kengaytiradi. Ta’lim tizimiga jiddiy e’tibor qaratilgani, qobiliyatli yoshlarni rag‘batlantirish, xalqaro tanlovlardagi ishtirokini ta’minlash kabi masalalar yosh ijodkorlar uchun katta imkoniyatdir. Ko‘p yillik mehnatlarim natijasini ko‘rib turibman. Bu yuksak mukofot zimmamga katta mas’uliyat yuklaydi. Bundan buyon ham ijodimni yangicha mazmun va shakllarda namoyun etish, yoshlar kamolotiga hissa qo‘shishni oldimga maqsad qilib qo‘yganman.

Ha, madaniyat, san’at va adabiyot ahli erkin ijod qilgan jamiyatdagina ma’naviy yuksalish ta’minlanadi. Bu borada ijodkorlarga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish, ularni qo‘llab-quvvatlash har doimgidan-da muhim.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri